

MAKTABGACHA TA'LIM TARBIYACHISI KASBIY

KOMPETENSIYASINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI.

Xasanova Dilshoda Avazbek qizi¹

¹ O'zMU ijtimoiy fanlar fakulteti ijtimoiy psixalogiya 2-kurs magistranti

**MAQOLA
MALUMOTI**

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 23.02.2025

Revised: 24.02.2025

Accepted: 25.02.2025

KALIT SO'ZLAR:

*kompetentligi,
mutaxassis, yangi-usul,
kompetensiya, talimiy
kamchilik.*

Ushbu maqolada Maktabgacha ta'limga tarbiyachisi kasbiy kompetensiyasining ijtimoiy psixologik xususiyatlarini shakllantirishning interfaol texnologiyalarini ishlab chiqish, integrativ ta'limga muhitini yaratishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilgan.

KIRISH. Bugungi kunda jamiyatning, fan va madaniyatning rivojlanishi ta'limga tarbiya ishlarining qay yo'sinda olib borilishiga bog'liq ekanligi sir emas. Bu falsafiy aqida har bir davlatning ahamiyatga ega bo'lgan ijtimoiy qonuniyatlaridan biri bo'lib hisoblanmoqda. Davlatning buyuk kelajagi, albatta, yoshlarni chuqur bilimli va barkamol shaxs taqdiri bilan bog'liqligini unutmagan holda, ushbu muammoni mahoratli, bilimli pedagoglar faoliyatiga tayanib yechish mumkinligini unutmasligimiz lozim. Ayni damda jahon miqiyosida ta'limga tizimini va ayniqsa maktabgacha ta'limga tizimini rivojlantirish, maktabgacha yoshdagi bolalarni ilg'or texnologiyalari asosida tarbiyalash va ijtimoiylashtirish masalasi eng muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu jumladan O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy taraqqiyotini ta'minlovchi ustuvor yo'naliishlardan biri sifatida ta'limga sohasi e'tirof etilmoqda. Ustuvor soha bo'lgan ta'limga tubdan yangilash, uni mazmunan boyitish, ta'limga tizimiga ilg'or pedagogik texnologiyalarni tadbiq etish va rivojlangan ta'limga darajasiga ko'tarish mamlakatda olib borilayotgan ta'limiylar islohotlarning

asosiy g‘oyasi hisoblanadi. Maktabgacha ta’lim sohasi uzlusiz ta’lim tizimining birlamchi bo‘g‘ini hisoblanib, u har tomonlama sog‘lom va barkamol bola shaxsini tarbiyalash va maktabga tayyorlashda g‘oyat muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

O‘zbekiston Respublikasining prezidenti Sh.Mirziyoevning ta’lim-tarbiyaga oid asarlari, O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘grisida»gi Qonuni «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», O‘zbekiston Respublikasi presidentining 2016 yil 29 dekabrdagi “2017-2021 yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2017 yil 30-sentyabrdagi PQ3305-sonli “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi presidentining 2017-yil 9- sentybabrda PQ-3261-sonli “Maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi prezidentining 2017 yil 30 sentyabrda “Maktabgacha ta’lim tizimi - 8 - boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5198- son farmoni va sohaga oid me’yoriy hujjatlar hamda mavzuga oid ilmiy psixologik va pedagogik metodik manbalar.

MUHOKAMA

Bugungi kunda ta’lim sohasida kompetentlik, kasbiy kompetentlik jumlasiga ko‘p bora duch kelinmoqda. Tarbiyachining kasbiy kompetentligini yoritishdan oldin kompetentlik aslida nima? Kasbiy kompetentlik negizida qanday sifatlar aks etishi mumkin? Pedagog o‘zida qanday kompetentlik sifatlarini yorita olishi darkor degan savollarga javob bersak. Quyida shu va shunga yondosh g‘oyalari yuzasidan so‘z yuritiladi. Inglizcha “competence” tushunchasi lug‘aviy jihatdan bevosita “qobiliyat” ma’nosini ifodalaydi. Mazmunan esa “faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorini namoyon eta olish”ni yoritishga xizmat qiladi. Zamonaviy mutaxassislarga qo‘yiladigan talablardan biri – kasbiy kompetentlikdir. “Pedagogik atamalar lug‘atida” “kompetentsiya – u yoki bu soha bo‘yicha bilimdonlik” “Kompetentlik” tushunchasi ta’lim sohasiga psixologlarning ilmiy izlanishlari natijasida kirib kelgan. Psixologik nuqtai nazardan kompetentlik “noan’anaviy vaziyatlar, kutilmagan hollarda mutaxassisning o‘zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, raqiblar bilan o‘zaro munosabatlarda yangi yo‘l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to‘la ma’lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalik”ni anglatadi. Inglizcha “competence” tushunchasi lug‘aviy jihatdan bevosita“qobiliyat” ma’nosini ifodalaydi. Mazmunan esa “faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorini

namoyon eta olish”ni yoritishga xizmat qiladi. “Kompetentlik” tushunchasi ta’lim sohasiga psixologlarning ilmiy izlanishlari natijasida kirib kelgan. Psixologik nuqtai nazardan kompetentlik “noan’anaviy vaziyatlar, kutilmagan hollarda mutaxassisning o‘zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, raqiblar bilan o‘zaro munosabatlarda yangi yo‘l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to‘la ma’lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalik”ni anglatadi. Tarbiyachining kompetentligi bu- kundalik faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalana olishi, yuqori darajadagi kasbiy malakasi, mahoratini va iqtidorini namoyon eta olishi hisoblanadi. Umuman olganda esa biz kompetensiyaning tarbiyachining faoliyatidagi ahamiyatini ta’kidlab, tarbiyachi faoliyatini tizimli tashkil etishni shakli sifatida talqin etib, tarbiyachining bilim va malakalarini amaliyotga tatbiq etishdan iborat ekanligini aytishimiz mumkin. Kasbiy kompetentlik quyidagi holatlarda yaqqol namoyon bo‘ladi:

- murakkab jarayonlarda;
- noaniq vazifalarni bajarishda;
- bir-biriga zid ma’lumotlardan foydalanishda;
- kutilmagan vaziyatda harakat rejasiga ega bo‘la olishda.

Kasbiy kompetensiyaga ega mutaxassis:

- o‘z bilimlarini izchil boyitib boradi;
- yangi axborotlarni o‘zlashtiradi;
- davr talablarini chuqur anglaydi;
- yangi bilimlarni izlab topadi;
- ularni qayta ishlaydi va o‘z amaliy faoliyatida samarali qo‘llaydi.

Darhaqiqat, tarbiyachilarning kasbiy mahorati bevosita ularda kompetensiyaning qaydarajada rivojlangani bilan bog‘liq . Ma’lumki maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim – tarbiya jarayonini tashkil etishning asosiy maqsadi, bola shaxsini maktab ta’limiga kompleks tayyorlashdan iborat. Shuningdek, bolada hayotiy kompetensiya ko‘nikmalari shakllantirish, jamiyatga ijtimoiy jihatdan moslashtirish bu jarayonning muhim qismidir. Keltirilgan vazifalarning yechimi tarbiyachilarning kasbiy kompetensiyasiga bog‘liq. Tarbiyachi maktabgacha ta’lim jarayonini isloh qilishdagi asosiy figura hisoblanadi. Buning uchun ular falsafiy, pedagogik, psixologik, didaktik, kommunikativ, metodik va boshqa kompetensiyalarni egalagan bo‘lishlari zarur. Tarbiyachining kasbiy kompetentligi kutilmagan ta’limiy vaziyatlarni mahorat bilan tashkil etish qobiliyatidir. Kasbiy kompetentlik deganda pedagogik faoliyatni muvafaqiyatli tashkil etish uchu zarur bo‘lgan kasbiy va shaxsiy sifatlar yig‘indisi tushuniladi. Tarbiyachining shaxsiy sifatlari sirasiga

bolalarda mehr-muhabbat va qiziqish, psixologik-pedagogik yetuklik va kuzatuvchanlik, pedagogik takt, pedagogik optimizm, pedagogik hayol va tashkilotchilik qobiliyati kiradi. Kasbiy kompetentlik tarbiyachining pedagogik faoliyatiga nazariy va amaliy tayyorgarligi bilan belgilanadi. Tarbiyachining kasbiy kompetentligi pedagogik faoliyatni yuqori darajada amalga oshirish, pedagogik muloqot, bolalarga ta'lim tarbiya berishda yuqori natijalarga erishishida namoyon bo'ladi. Tarbiyachi o'zining pedagogik faoliyati natijalarini tahlil qilishi va ta'lim jarayonini muntazam yangilab borishi lozim. Kasbiy kompetentlik ijodiylikni rivojlantirish, pedagogik innovatsiyalarni tadbiq etish, o'zgaruvcha pedagogik muhitga moslashish qobiliyatidir. Tarbiyachining kasbiy mahorat darajasi jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy va manaviy rivojlanishiga ham bog'liq. Maktabgacha yoshdagi bolalarni zamonaviy bilimlar bilan qurollantirshda, yuqori kasbiy mahoratga ega bo'lgan tarbiyachilarining o'rni katta. "Kasbiy mahorat" tushunchasi nafaqat kasbiy, kommunikativ, information va huquqiy kompetensiya bilan belgilanadi, balki tarbiyachining shaxsiy potensiali, kasbiy qadriyatlari, uning o'ziga bo'lgan ishonchi, ta'limiy natijalar beruvchi faoliyati bilan tavsiflanadi. Tarbiyachining kasbiy kompetensiyasiga qo'yilgan zamonaviy talablardan biri o'z vaqtida ta'lim-tarbiya jarayoniga ta'sir ko'rsatish mahoratidir. Maktabgacha ta'lim tizimida yuz berayotgan o'zgarishlar va talablarni bajarish tarbiyachining kasbiy mahorati, o'z ustida ishslash hamda kasbiy kompetensiyani taqozo etadi. Tarbiyachilar maktabgacha ta'lim bo'yicha kasbiy salohiyatini oshirish, tez o'zgarayotgan davrda bola shaxsini samarali tarbiyalash qobiliyatiga ega bo'lishlari, zamon talablariga javob berish lozim. Tarbiyachiga qo'yilgan zamonaviy talablardan biri ularning kasbiy kompetentligini rivojlantirishdan iborat. Kasbiy kompetensiyani rivojlantirish yo'llari quyidagilardan iborat:

- uzlusiz malaka oshirish tizimini yo'lga qo'yish; Tarbiyachiga qo'yilgan zamonaviy talablardan biri ularning kasbiy kompetentligini rivojlantirishdan iborat. Tarbiyachiga qo'yilgan zamonaviy talablardan biri ularning kasbiy kompetentligini rivojlantirishdan iborat.

- tarbiyachilarining o'z ustida ishlashi; metodik va pedagogik kengashlarda ma'ruzalar bilan faol ishtirok etish;

- avgust kengashlarida ishtirok etish ;
- zamonaviy ta'lim texnologiyalarni bilish va ulardan foydalanish;
- pedagogik vositalari va ularni muntazam takomillashtirish;
- axborot kommunikatsion texnologilalaridan foydalana olish ko'nikmasi;
- turli tadbir, tanlov va loyihalarda ishtirok etish;

- shaxsiy pedagogik tajribasini umumlashtirish va keng targ‘ib qilish.

NATIJALAR

Shakllantiruvchi bosqichda mакtabgacha ta’lim tashkilotida tarbiyachining kompetentligi, kreativligi va innovatsion faoliyatini tizimli tashkil etishda pedagogik texnologiyalar vositasida shakllantirishda mashg‘ulot ishlanmalari, ko‘rgazmali quollar, tarqatma materiallar na’munalari tayyorlandi va amaliyotda ulardan foydalanildi. Nazariy tadqiqotlar natijasida aniqlangan ilmiy yechimlar asosida metodik tavsiyalar ishlab chiqildi.

Shuningdek, tajriba-sinov ishlari davomida suhbatlar o‘tkazildi. Suhbat – maxsus tuzilgan dastur bo‘yicha shaxsiy muloqot jarayonida dalillarni to‘plash usuli. Tarbiyalanuvchilar, tarbiyachilar, ota-onalar bilan suhbat o‘tkazish usullari ham qo‘llanildi:


- a) tadqiqot boshlanayotganda, dastlabki tanishish vaqtida;
- b) boshqa uslublar bilan olingan tadqiqot natijalariga qo‘srimcha ma’lumotlarni olish zarur bo‘lganda;
- v) tadqiqot qilish jarayonida boshqa uslublar bilan qamrab olinmagan, tadqiqotning boshqa tomonlarini o‘rganishda.

Tajriba-sinov ishi mакtabgacha ta’lim tashkilotida olib bordik. Tajriba-sinov ishlariga jami 35 nafar tarbiyalanuvchi va 10 nafar tarbiyachilar jalb etildi. Tajriba-sinov ishida tarbiyachining kasbiy kompetentligi, kreativligi va innovatsion faoliyatini tizimli tashkil etishda innovatsion, pedagogik texnologiyalardan foydalanish ahvoli yetarlicha emas degan xulosaga keldik. Buning bir qator sabablari mavjud bo‘lib, ular hozirgi kunda tarbiyachilarining “kasbiy kompetentlik”, “kreativlik”, “innovatsiya” so‘zlarini mazmunini to‘la anglamaganliklari, tushunib yetmaganliklari, o‘quv ta’lim jarayonidagi kamchiliklar, tarbiyachilarining innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanishdagi sustkashliklar va yetarli shart-sharoitlarni yaratilmaganligi, shu mavzuga oid o‘yinlardan foydalanishning sustligi va jamoada raqobat muhiti yaratilmayotganligidir. Yuqorida keltirilgan bir qator sabablarning kelib chiqish holatlarini aniqlash maqsadida tashkilotning pedagogik jamoalari va 5-6 yoshli bolalar bilan suhbat, ularni kuzatish va ota-onalari o‘rtasida anketa so‘rovnalarini o‘tkazdik va aniqlashtiruvchi tajribalarimizda natijalarini keltirdik. Berilgan savollarga javoblarni va kuzatishlar natijalarini tahlil qilib chiqqanimizdan so‘ng aniqlovchi va shakllantiruvchi tajribalar asosida 5-6 yoshli bolalar guruhi tarbiyachilar hamda tarbiyalanuvchilarida “Tarbiyachining kasbiy kompetentligi, kreativligi va innovatsion faoliyatini tizimli tashkil etish” mavzusida tajriba sinov ishlarini olib bordik. Tajriba boshida tarbiyalanuvchilarni ikki guruhga ajratib oldik. O‘tkazilgan so‘rovnoma

natijasida tadqiqot avvalidagi tarbiyachilarining kasbiy kompetentligi kreativligi va innovatsion faoliyatini tizimli tashkil etish holati ko'rsatkichi:

T Tadqiqot joyi	O 'zla s htir ish dar aja si	Tarbi yachinin g kasbiy compete nt ligini rivojla nganligi	Tarbi yachinig kreativ qobiliyat ini rivojlang anligi	Tarbiy achinig pedagogic texnologiy alarda n foydalans h h olat i	Tarbi yachinin g innov atsion faolligi	Jami
DMTT	Y uqori	3	4	3	5	15
	O 'rta	10	8	9	8	35
	Pa st	2	3	3	2	10
J am i	15		15	1 5	15	

Tarbiyachining kasbiy kompetentligi, kreativliga va innovatsion faoliyatini tizimli tashkil etish holatini aniqlash



Birinchi guruh – nazorat guruhi. Ikkinci guruh – tajriba guruhi. Ikkala guruh tarbiyachilariga ham bir xil matndagi savolnomalar tarqatildi. Tajriba-sinov ishlarini olib borish jarayonida tajriba guruhidagi bolalar bilan biz alohida ishlab, o‘zimiz ishlab chiqqan o‘yinlardan, innovatsion texnologiyalarga asoslangan mashg‘ulotlardan foydalandik, tushuntirish, suhbat, seminarlar, tashkil qildik. Bu tajriba-sinovishlarini albatta ko‘p yillik tajribaga ega bo‘lgan tarbiyachilar bilan ishlagan holda bolalarni xarakterxususiyatlaridan kelib chiqib olib bordik. Avvalo tarbiyachini kreativ kompetentligiga e’tibor qaratilib, faoliyati davomida innovatsion faoliyatini tizimli tashkil etishni shakllantirish bo‘yicha biz tomonimizdan tashkil etilgan metodik tavsiyalar, o‘yinlar, mashg‘ulotlar o‘z samarasini berdi. Tajriba-sinov yakunida biz guruhlardan olgan natijalarni tahlil qildik. Olib borilgan tahlil shuni ko‘rsatadiki, tajriba-sinov o‘tkazilgan tajriba guruhi ko‘rsatkichlari nazorat guruhlari ko‘rsatkichidan ancha yuqori.

XULOSA

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyachisini kompetentligini va kreativligini tizimli tashkil etish va rivojlantirish uchun uzluksiz malaka oshirish tizimini yo‘lga qo‘yish, tarbiyachilarining o‘z ustida ishlashlarini tashkil etish, metodik va pedagogik kengashlarda ma’ruzalar bilan faol ishtirok etishlarini nazorat qilish, zamonaviy ta’lim texnologiyalarni bilish va ulardan foydalanishlariga erishish, pedagogik texnologiya vositalari va ularni muntazam takomillashtirish, axborot komunikatsion texnologilalaridan foydalana olish ko‘nikmasini oshirish, turli tadbir, tanlov va loyihalarda ishtirok etishlarini ta’minlash, shaxsiy pedagogik tajribasini umumlashtirish uchun keng targ‘ibot ishlarini tashkil etishlari

darkor. Tarbiyachida kasbiy kompetentsiyani rivojlantirishda o‘z ustida ishlashi va o‘z-o‘zini rivojlantirishi juda muhimdir. Tarbiyachi muntrazam “Ilk qadam” davlat dasturini amaliyotga joriy etishdagi muammo va yechimlarga qaratilgan o‘quv seminari, masterklass, konferensiyalarda ishtirok etishi tajribali tarbiyachilarini ochiqmashg‘ulotlarini kuzatishi tarbiyachilarining o‘zlarida kasbiy kompetentlikni rivojlantirishlariga, kasbiy malakalarini yuqori cho‘qqilariga chiqishlariga imkon beradi.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Do‘stmuhamedova SH. A., Nishonova Z.T. va boshqalar. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya.-T.:Fan va texnologiyalar, 2013.
2. Husanov B., G‘ulomov V. Muomala madaniyati / Darslik. – T. : “Iqtisod-moliya”, 2009
3. Jo‘rayeva B.D. Maktabgacha ta’limni modernizatsiyalash muammolari va rivojlantirish istiqbollari. Xalq ta’limi j., 2008. 5-son. -114-119 b.
4. Z.K.Kurbaniyazova p.f.n., Berdoq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti Pedagogika fakulg‘teti, Pedagogika va psixologiya kafedrasи, Pedagogik mahorat (mahruzalar matni). T.; 2007.
5. Levitan K.M. Lichnostg‘ pedagoga: stanovlenie i razvitie. Izd-vo Saratovskogo universiteta. 1991. -166 s.
6. Муслимов Н.А., Усмонбоева М.Х., Сайфуров Д.М., Тўраев А.Б. Инновацион таълим технологиялари – Т.: “Саностандарт” нашиёти, 2015. – 81-б.
7. Maktabgacha pedagogika. O‘quv-uslubiy majmua. Termiz-2018
8. Mavlonova R., To‘raeva O. Holiqberdiev K. Pedagogika. T., O‘qituvchi. -2001. – 512 b.
9. Nishonova Z.T., Alimova G.K. Bolalar psixologiyasivapsixodiagnostikasi.-T.:TDPU, 2017.